



## MINTAQA TURIZMIDA MEHMONXONA VA OVQATLANISH XIZMATLARINI OPTIMAL MODELLASHTIRISH USULLARI

**Muxitdinov Shohijahon Xudoyor o'g'li** -  
Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing  
kafedrasi mudiri, i.f.f.d (Phd)

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss5/a57](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a57)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaq turizmida mehmonxona va ovqatlanish xizmatlarini optimal modellashtirish usullariga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaq iqtisodiyotini optimal rivojlanishini obyektiv mezonlari, realizatsiyasi, Bozor iqtisodiyotida optimal boshqaruvi, Mintaqani boshqarishni tartibga solish usullari.

## МЕТОДЫ ОПТИМАЛЬНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ГОСТИНИЧНОГО И ПИТАТЕЛЬНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В РЕГИОНАЛЬНОМ ТУРИЗМЕ

**Мухитдинов Шахиджахан Худоёрович** -  
Начальник отдела туризма и маркетинга  
Каршинского государственного университета (Phd)

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены факторы, влияющие на методы оптимального моделирования гостиничного и ресторанного обслуживания в региональном туризме.

**Ключевые слова:** объективные критерии оптимального развития региональной экономики, реализация, оптимальное управление в условиях рыночной экономики, методы регулирования управления регионом.

## METHODS OF OPTIMAL MODELING OF HOTEL AND CATERING SERVICES IN REGIONAL TOURISM

**Mukhitdinov Shahijahan Khudoyorovich**  
Karshi State University Head of Department  
of Tourism and Marketing (Phd)

**Annotation.** This article discusses the factors influencing the methods of optimal modeling of hotel and restaurant services in regional tourism.

**Keywords:** objective criteria for the optimal development of the regional economy, implementation, optimal management in a market economy, methods of regulating the management of the region.

**Kirish.** Mintaqa iqtisodiyoti sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda mintaq tabiiy resurslari va iste'mol, xizmat ko'rsatish sohasining bir yerga jamlanish sifatida namoyon bo'ladi va iqtisodiy munosabatlar objekti alohida iqtisodiy yo'naltiruvchi sifatida chuqur qaralmaydi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda mintaqani ko'p tarmoqli tizim sifatida tadqiq etish lozim. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, olimlar mintaqaning asosan, to'rtta konsepsiyasini ajratadilar: mintaq kvazidavlat, mintaq kvazikorporatsiya, mintaq bozor (bozor oreol), mintaq sotsium. Mintaqa kvazidavlat sifatida o'ziga nisbatan davlatning va milliy iqtisodiyotning alohida tizim ostini ko'rsatadi. Ko'pgina mamlakatlarda bunday mintaqalar avval markazga tegishli bo'lgan funksiyalar va moliyaviy resurslarni yanada ko'proq to'plamoqdalar, ya'ni, detsentralizatsiya jarayonlari ro'y bermoqda. Mintaqa hokimiyatning asosiy funksiyalaridan biri mintaq iqtisodiyotni tartibga solishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** B.Ganiyev, T.Axmedovlar o'zlarining tadqiqotlarida quyidagilarni ilgari surganlar, "Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublika mintaq siyosatining asosiy maqsadlari-

ga quyidagilar kiradi: mintaqaviy omillardan samarali foydalanish; mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash va aholining yashash darajasini oshirish; ayrim hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga noqulay sharoitlarning ta'sir etishini kamaytirish".[4]

Har qanday mintaqaning rivojlanishini hamisha uning tabiiy resurs bazalari, ekologik ahvoli, intellektual salohiyati va boshqa tarkibiy qismlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga ta'siri bilan determinatsiyalangan bo'lsa, mintaq iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar tahlilini optimallashtirish uchun qo'yilgan maqsad bilan bog'liq yakuniy natijalar olishga imkon beruvchi mezonlarni individual tanlash kerak bo'ladi. Mintaqa rivojlanshining strategiyasini ishlab chiqishda muhim yo'nalish jamiyatning rivojlanishiga yaxlit iqtisodiy yondashuvni ko'rib chiqish zarur. Bu borada A.M. Sodiqov mintaqani rivojlantirish strategiyasini asoslashning quyidagi sxemasini taklif qilgan [3]:

- mintaqalar rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish; bu bosqichda min-

taqaning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish holati va darajasini tahlil qilish, baho berish;

- mintaqaviy rivojlanishni tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uning davlat va bozor usullarni tanlash;

- mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash va prognoz qilish;

- mintaqaning moliyaviy resurslari bilan ta'minlanish darajasini prognoz qilish, budjetning daromad qismini mustahkamlash va uni kengaytirish yo'llarini izlash; turli mulkchilik shakllari, tadbirkorlik chet el investorlari va budjetdan tashqari fondlardan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish hisobiga budjetning daromad qismini to'ldirish uchun yangi manbalar aniqlash.

Mintaqada yuz berayotgan iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, innovatsion jarayonlarni tashqi va ichki omillar ta'sirini o'rganib chiqish Mintaqa iqtisodiy dinamikasini alohida tarkiblari bo'yicha salbiy va ijobiy holatlarini baholash uning rivojlanish tendensiyasini aniqlashga imkon beradi. R.I. Nurimbetov o'zining tadqiqotlarida mintaqada iqtisodiyotni boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni quyidagicha ishlab chiqqan:

- raqobat muhitini shakllantirish yo'li bilan mintaqadagi har bir xo'jalik subyekti va mulkchilikning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini amalga oshirish uchun teng iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- o'z-o'zini tashkil qilishning bozor tizimi, xo'jalikni yuritish jarayonini o'zi boshqarish va mos holdagi davlatning iqtisodiy tartibga solish tizimini shakllantirish yordamida takror ishlab chiqarish jarayonini tartibga keltirish;

- zamonaviy innovatsion asosda mintaqada salohiyatining tarkibiy qismlari orasidagi muvozanat va mutanosiblikni ta'minlash;

- takror ishlab chiqarish barcha subyektlarining malakasi va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, marketing xizmati, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, sifat jihatdan yangi texnologiyalarni yaratishdagi xo'jalik subyektlari uchun barqaror rag'batlantirishlarni qo'llab-quvvatlash;

har bir xo'jalik subyekti iqtisodiy ahloqining mosligi, shuningdek, bozor qonunlariga mos holda barcha iqtisodiy tizimlarning o'z-o'zini tartibga solishni ta'minlash.[5]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Mintaqa iqtisodiy tizimning hayotiy jihatlari sinteziga mintaqada fani avval boshdanoq katta e'tibor qaratadi. Mintaqa iqtisodiyoti optimal funksiyalanishi nazariyasida mintaqaga axborot jamiyatining axborot tizim osti yoki

iqtisodiyotni rayonlashtirish va globalashtirishning bevosita ishtirokchisi sifatida qaraluvchi boshqa yondashuvlar ham rivojlanmoqda. Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanish nazariyasi makroiqtisodiyot, mikroiktisodiyot, institutsional iqtisodiyot va hozirgi zamon iqtisodiyot fanining boshqa yo'nalishlariga suyanadi. [10]

Mintaqa va milliy iqtisodiyotning o'xshashligi mintaqada uchun makroiqtisodiy nazariyalarni (neoklassik, neokeynschilik), ishlab chiqarish omillarini, ishlab chiqarish harajatlari, foyda, bandlik darajalarini asos sifatida qo'yadiganlar uchun qo'llash imkoniyatlarini belgilaydi. Bozor iqtisodiyotida optimal boshqaruvning mintaqada tizimini yaratishdagi eng muhim nuqtayi nazarlardan biri mintaqada iqtisodiyotning optimal tartibga solish nazariyasi hisoblanadi. Uning faqrlanuvchi xususiyati mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqaruv prinsiplarini izchil ravishda qo'llash hisoblanadi. Mintaqa iqtisodiyotini optimal rivojlanishini obyektiv mezonlari realizatsiya qilayotgan murakkab tizim sifatida anglash asosida mintaqada iqtisodiyoti optimal tartibga solish nazariyasini harajatlarni qiyoslash va ishlab chiqarish natijalarini cheklangan mehnat va moddiy resursni oqilona taqsimlash va foydalanish "iqtisodiyot sektorlari rivojlanishining optimal sur'atlari va mutanosibligi" ishlab chiqarish obyektlari va butun jamiyat manfaatlarining yaxshi qo'shiluvi muammolari sifatida va miqdor nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi.[11]

Mintaqa iqtisodiy tizimning turizm sohasida mehmonxona va ovqatlanish xizmatlarining iqtisodiy darajasidagi pozitsiyasi bilan bog'liq jiddiy alohida tavsiflarini ajratamiz.

**Birinchiidan,** mintaqada chegaralarini bir mingdan bir necha ming kv kmgacha o'zgarib turadigan o'lchamlari.

**Ikkinchiidan,** mintaqadagi tizimi ishlab chiqarish resurslari va omillari bilan to'lganligining zichligi.

**Uchinchiidan,** rivojlanish darajasi ishlab chiqarishning mavjud omillari ularning mos keluvchi texnologik darajalariga, modernizatsiyasiga, texnik qayta jihozlanishiga, axborot texnologiyalariga tegishlilik.

**To'rtinchiidan,** aholining nafaqat an'anaviy ma'noda, ya'ni, mintaqada iqtisodiy tizimining ishchi kuchi bilan taminlanganlik sifatidagina emas. Uning keng tushunchali inson omilini yaratuvchanlik salohiyati bilan ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, boyligi jihatidan qaralishi kerak bo'lgan zichligi.

**Beshinchiidan,** mintaqadagi hayot tarzi daromad bazasi va mos holda jamg'armalar va investitsiyalar potensialida va shuningdek, mintaqada aholisining tarmoq boshqaruvidagi va jamiyatdagi siyosiy faolligi, moliyaviy mustaqilligi darajasiga bog'liqlikdagi o'rtacha daromadlari darajasi.

**Oltinchidan**, mintaqaning institutsional imkoniyatlari va mintaq tizimi rivojlanishiga cheklovlar va uning ishtiroki bilan o'zaro birlikda harakatlanishini va uning ishtiroki bilan integratsiyalanuvchi xarakterini beruvchi milliy jamoatchilik xo'jalik tuzilishiga qo'shilish usullari.

Shularni e'tiborga olgan holda, mintaq iqtisodiyotidagi hamma asosiy qonuniyatlarga, aloqalar va jarayonlarga miqdoriy tavsif beruvchi iqtisodiy matematik modellar tuzish zarur. Ularga hamma darajalarda, alohida korxonadan umuman yaxlit holda mintaq darajasiga qadar eng samarali optimal natijalar olish imkoniyati yuklatilgan bo'lmog'i zarur. Shu bilan birga, modellar kompleksi xo'jalikni oqilona yuritishning iqtisodiy dastaklardan maksimal foydalanish imkoniyatlarini ta'minlamog'i zarur. Ya'ni narx, foydalar, rentabellik, moddiy rag'batlantirishni faqat shu holdagina optimal qaror uni bajarishning optimal sharoitlari va rag'batlari bilan qo'shiladi.[12]

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uni asoratlarini bartaraf etishda mamlakat va uning mintaqalarining iqtisodiy holatini baholash katta ahamiyat kasb etadi. Mintaq iqtisodiy dinamikasi ko'rstakichlari tizimini aniqlash masalalari favqulodda, dolzarb muammo hisoblanadi. Chunki jamiyat optimal iqtisodiy natijalarga erishish uchun o'zi qanday harajatlar qilayotganini va bu harajatlar qanchalik asoslanganligini va maqsadga muvofiqligini baholash zarur. Mintaqaning iqtisodiy va moliyaviy holati ko'rsatkichlari hisob-kitob tizimiga kiruvchi baholanuvchi omillar tanlanishi to'g'riligiga mintaqaning aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni taminlashga yo'naltirilgan. Bu esa, mintaq rivojlanish strategiyalarini tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Bunday yondashuv mintaq salohiyatidan foydalanishni optimallashtirish bilan bog'liq mintaq iqtisodiy va institutsional islohotlar tizimini ishlab chiqish va realizatsiya qilishni ko'zda tutadi.[15]

Mintaqani boshqarishni tartibga solish usullari turlicha mezonlar bo'yicha tavsiflanishi mumkin:

Boshqaruv obyektiga ta'sir o'tkazish bo'yicha:

a) Iqtisodiy omillar yordamida mintaq muammolariga rag'batlantiruvchi va cheklovchi ta'sir o'tkazadi, o'z navbatida ular to'g'ridan to'g'ri (bevosita) (davlat xaridi, maqsadli moliyalashtirish, subsidiyalar berish) bilvosita (soliq, pul kredit, budget, institutsional, investitsion, ijtimoiy siyosatlar);

b) Meyoriy-huquqiy hujjatlar tizimi orqali tabdiq qilinuvchi ma'muriy to'g'ridan to'g'ri taqiq-larga bo'linadi;

Mintaqaviy chegaralarga bog'liq holda:

a) Tizimli usul (davlat mintaq, tarmoq, mahalliyashtirish dasturlari);

b) Imtiyozli usul (mintaqada erkin va maxsus iqtisodiy zona yaratish ).

Umumiy va yaxlit holda davlat boshqaruvi institutlari mintaqaviy rivojlanishi to'g'ridan to'g'ri va bilvositaga bo'linadi.

To'g'ridan to'g'ri (bevosita): davlat mulkini boshqarish bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari;

mintaqaning dotatsion transfertlarini tartibga soluvchi hujjatlar;

ijtimoiy himoya bo'yicha talablarni tartibga soluvchi hujjatlar.

Bilvosita usullar quyidagilarga bo'linadi:

a) Moliyaviy iqtisodiy usullar, fiskal siyosat (soliqlarni yig'ish, soliq ma'muriyatchiligi) pul siyosati, tashqi investitsion siyosat, aholi daromadlarini tartibga solish siyosati;

b) Ijtimoiy siyosiy usullar: mintaqaning kompleks ijtimoiy dasturlari, aholini ijtimoiy himoyalash ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohaslarida siyosat.

Bu vositalarning hammasi o'zaro kelishilgan, aniq, o'zaro bog'liq tizim sifatida barpo etilib, kompleks va izchillik bilan realizatsiya qilinishi lozim:[14]

1. Mintaqada ekologik tizim konsepsiyasi.

2. Mintaq kvazidavlat sifatida avval markazga tegishli bo'lgan hamma funksiyalarni va moliyaviy resurslarni akkumulyatsiyalash, boshqarishni qayta markazlashtirish jaryonlari.

3. Mintaq kvazikorporatsiya sifatida mulkchilikning yirik subyekti, tovarlar va xizmatlar bozorlarida raqobatbardoshlik, qulay investitsion muhit yaratish, milliy korporatsiyalar bilan hamkorlik.

4. Mintaq bozor sifatida tadbirkorlik muhiti, tovarlar va xizmatlar, mehnat, qimmatli qog'ozlar, kredit va moliya resurslari, axborot texnologiyalari, ta'lim va boshqalar.

5. Mintaq sotsium sifatida aholi mehnat resurslari bandlik, hayot darajasi, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, atrof muhit, ekologik tanglik, uy – joy kommunal xo'jaligi va boshqalar. [16]

**Xulosa va takliflar.** Fikrimizcha omillarni quyidagi tashqi va ichki omillar bo'yicha aniqlamoq lozimdir:

- xo'jalik faoliyatining tabiiy ekologik, tuzilmaviy, takror ishlab chiqariluvchi, institutsional va boshqa shartlari, shuningdek, tahlil qilinayotgan subyektda mintaq iqtisodiyotining tutgan o'rni;

- boshqaruvning tartibga solish bozor vositalari (narxni shakllantirish, ekologik talab, audit, moliya, kredit sohasining rivojlanishi, soliqqa tortishni ham qo'shgan holda);

- egalik munosabatlari va birinchi galda tabiiy resurlarga egalik tizimi;

- jamiyatning takror ishlab chiqarishi jarayonida shakllanadigan boyliklar va xizmatlarni ishlab chiqarish, istemol qilish, taqsimlash va qayta taqsimlash tizimi;

- pul, kredit va budjet soliq siyosati vosita (mablag')larini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlarini davlat tomonidan boshqarilishini tartibga solish tizimi.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyayevning 2020 yil 24 yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasi. lex.uz
2. Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili Davlat Dasturi. lex.uz
3. Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм:назария ва амалиёт. -Т.: "Баркамол файз медиа" нашриёти 2018 й.70-б.
4. Porter, M. E. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77-90, 1998.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси тўғрисида"ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони. Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
6. Рузметов Ш., Саидов О., Бахтияров Ш. Развитие смежных отраслей и вспомогательных производств региона на базе местного предпринимательства. "Орол бўйи зонасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий-экологик муаммолари" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Нукус, 2015 йил 6-7 май.
7. Эгамов Б., Бахтияров Ш. Минтақада машинасозлик ва енгил саноат корхоналарида аутсорсинг хизматларини ташкил этиши. Республиканская научно-методическая конференция молодых учёных ТерДУ 31 марта-1 апреля 1-часть Термиз 2017.
8. Худайбергенов Ж., Бахтияров Ш. Минтақа қурилиш индустриясида иқтисодий самарали ва экологик омиллардан фойдаланиш имкониятлари. Республиканская научно-методическая конференция молодых учёных ТерДУ 31 марта-1 апреля 1-часть Термиз 2017.
9. Hukumat portali - [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
10. "O'zbekiston Havo Yo'llari" Milliy Aviakompaniyasi - [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com)
11. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi - [www.mfa.uz/eng](http://www.mfa.uz/eng)
12. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi - [www.madaniyat.sport.uz](http://www.madaniyat.sport.uz)
13. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz)
14. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
15. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
16. [www.wto.org](http://www.wto.org)
17. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**ХАЛҚАРО ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ДИНАМИКАСИ  
ВА ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ**



[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss5/a58](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a58)

**Астанақулов Олим Таштемирович -**  
DSc, проф., Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
Ислом иқтисодиёти ва молияси кафедраси мудири  
**Сохибова Муслимахон Холматжон қизи -**  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси,  
магистрант

**Аннотация.** Туризм халқаро истисодий фаолиятнинг асосий турларидан бири ҳисобланади. У нафақат мамлакат, балки айрим минтақалар иқтисодиётида салмоқли ўрин эгаллайди. Халқаро туризм пандемиядан энг кўп зарар кўрган тармоқлардан бири бўлиб, пандемия даврида туристик хизматларга талаб сезиларли даражада камайди. Ушбу мақолада халқаро туристик хизматлар ривожланиши динамикаси, пандемиянинг саноатга таъсири ва пандемиядан кейинги ҳолати ўрганилди, соҳадаги тенденциялар таҳлил қилинди.

**Калит сўзлар:** халқаро туризм, туристик хизматлар, COVID-19, халқаро туризм статистикаси, туризм.

**АНАЛИЗ ДИНАМИКИ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ**

**Астанақулов Олим Таштемирович -**  
д.э.н., проф., Международная исламская академия Узбекистана  
Заведующий кафедрой "Исламская экономика и финансы"  
**Сохибова Муслимахон Холматжон кизи -**  
Магистрант, Международная исламская академия Узбекистана

**Аннотация.** Туризм является одним из основных элементов внешнеэкономической деятельности. Он занимает важное место в экономике не только страны, но и некоторых регионов. Международный туризм является одним из секторов, наиболее пострадавших от пандемии, и спрос на туристические услуги во время пандемии значительно снизился. В данной статье изучена динамика развития международных туристических услуг, влияние пандемии на отрасль и постпандемическая ситуация, проанализированы тенденции в сфере.

**Ключевые слова:** международный туризм, туристические услуги, COVID-19, статистика международного туризма, туризм.